ENDOMETRIOZ BILAN OG‘RIGAN AYOLLARDA HAYOT SIFATI VA PSIXOLOGIK HOLAT

Madaminova Klara Sherali qizi
EMU Universiteti
klaramadaminova7@gmail.com
Sobirova Munisa Rixsiyevna
EMU University

Annotatsiya *Ushbu tezisda endometrioz bilan og’rigan ayollarda hayot sifati va psixologik holatning o’zgarishi so’nggi ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan. Endometrioz reproduktiv yoshdagi ayollarning 10–15 foizida uchraydigan surunkali ginekologik kasallik bo’lib, surunkali chanoq og’rig’i va bepushtlik bilan birga ko’plab bemorlarda depressiya va tashvish alomatlarining rivojlanishiga sabab bo’ladi.*

Tizimli sharhlar va meta-tahlillar natijalariga ko’ra, depressiv alomatlar tarqalganligi 10 foizdan 98 foizgacha, tashvish alomatlari esa 12 foizdan 88 foizgacha o’zgarib turadi, endometrioz bemorlarida depressiya va tashvish xavfi sog’lom ayollarga nisbatan taxminan uch baravar yuqori. Tahlil natijalari endometrioz bilan og’rigan ayollarga tibbiy davolash bilan bir qatorda psixologik yordam ko’rsatish zarurligini, shuningdek tashxisni erta qo’yish va multidisiplinar yondashuvni joriy etish hayot sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: *endometrioz, hayot sifati, psixologik holat, depressiya, tashvish, surunkali chanoq og’rig’i, bepushtlik, ruhiy salomatlik.*

Аннотация. *В тезисе на основе современных научных публикаций проанализированы изменения качества жизни и психологического состояния женщин, страдающих эндометриозом. Эндометриоз является хроническим гинекологическим заболеванием, встречающимся у 10–15% женщин репродуктивного возраста. Наряду с хронической тазовой болью и бесплодием заболевание у многих пациенток сопровождается развитием симптомов депрессии и тревоги.*

Согласно данным систематических обзоров и метаанализов, распространённость депрессивных симптомов варьирует от 10% до 98%, а тревожных симптомов — от 12% до 88%. Риск развития депрессии и

тревоги у пациенток с эндометриозом примерно в три раза выше по сравнению со здоровыми женщинами. Результаты анализа подтверждают необходимость оказания психологической поддержки женщинам с эндометриозом наряду с медицинским лечением. Ранняя диагностика заболевания и внедрение мультидисциплинарного подхода имеют важное значение для улучшения качества жизни пациенток.

Ключевые слова: *эндометриоз, качество жизни, психологическое состояние, депрессия, тревога, хроническая тазовая боль, бесплодие, психическое здоровье.*

Abstract*. This thesis analyzes changes in the quality of life and psychological well-being of women with endometriosis based on recent scientific literature. Endometriosis is a chronic gynecological disease affecting approximately 10–15% of women of reproductive age. In addition to chronic pelvic pain and infertility, the disease is frequently associated with the development of depressive and anxiety symptoms.*

According to systematic reviews and meta-analyses, the prevalence of depressive symptoms ranges from 10% to 98%, while anxiety symptoms range from 12% to 88%. The risk of depression and anxiety among women with endometriosis is approximately three times higher than that observed in healthy women. The findings emphasize the need to provide psychological support alongside medical treatment for women with endometriosis. Early diagnosis and the implementation of a multidisciplinary approach are also important for improving patients' quality of life.

Keywords: *endometriosis, quality of life, psychological well-being, depression, anxiety, chronic pelvic pain, infertility, mental health.*

Kirish Endometrioz — bachadon shilliq qavatiga o'xshash to'qimaning bachadondan tashqarida o'sishi bilan tavsiflanadigan surunkali ginekologik kasallik bo'lib, reproduktiv yoshdagi ayollarning taxminan 10–15 foizida, chanoq og'rig'i yoki bepushtlikdan shikoyat qiluvchi ayollarning esa yarmigacha qismida uchraydi [1].

Kasallikning asosiy klinik ko'rinishlari — dismenoreya, dispareuniya, siklsiz chanoq og'rig'i va bepushtlik — nafaqat jismoniy, balki ayolning ruhiy holatiga ham chuqur ta'sir ko'rsatadi. Tashxisning ko'pincha yillar davomida kechiktirilishi bemorlarda umidsizlik, izolyatsiya va kuchli ruhiy taranglikni keltirib chiqaradi, bu esa o'z navbatida kasallik alomatlarining og'irlashishiga va davolashni boshlashning kechikishiga olib kelishi mumkin [2].

Depressiv va tashvish alomatlari hamda hayot sifatining endometrioz bilan bog'liqligini o'rgangan keng qamrovli tizimli sharhda 2023-yil martigacha nashr etilgan adabiyotlar tahlil qilingan bo'lib, depressiya alomatlari tarqalganligi turli tadqiqotlarda 9,8 foizdan 98,5 foizgacha, tashvish alomatlari esa 11,5 foizdan 87,5 foizgacha o'zgarib turgani aniqlangan. Endometrioz bilan og'rigan bemorlarda hayot sifati sog'lom ayollarga nisbatan sezilarli darajada pastroq ekanligi barcha ko'rib chiqilgan tadqiqotlarda tasdiqlangan [1].

Endometrioz va ruhiy salomatlik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan yaqinda chop etilgan meta-tahlilda tashvish va depressiya xavfi endometrioz bemorlarida sog'lom nazorat guruhiga nisbatan qariyb uch baravar yuqori ekanligi statistik jihatdan ishonchli tasdiqlangan. Mualliflar bu natijalar asosida endometrioz bilan davolanayotgan bemorlarni ruhiy salomatlik bo'yicha muntazam skriningdan o'tkazish va og'riqni nafaqat jismoniy, balki psixologik-emotsional jihatdan ham kompleks boshqarish zarurligini tavsiya qiladilar [3].

Tayvanda o'tkazilgan yirik populyatsion kogort tadqiqotida endometrioz tashxisi qo'yilgan ayollarda keyingi yillarda ruhiy kasalliklar tashxisi qo'yilish xavfi sog'lom ayollarga nisbatan yuqori ekanligi, bunda xavf ayniqsa tashxis qo'yilgandan keyingi birinchi yilda eng yuqori bo'lib, keyingi yillarda pasayib borishi aniqlangan. Shuningdek, tashxis qanday usulda - jarrohlik yo'li bilan yoki klinik\instrumental usullar bilan – qo'yilganiga qarab ruhiy kasalliklar xavfi farqlanishi ko'rsatilgan, bu esa tashxis jarayonining o'zi ham bemorning ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatadi [4].

Adabiyotlar tahlili Qozog'istonlik va boshqa mualliflar tomonidan bajarilgan, 15 ta tizimli sharhni o'z ichiga olgan integrativ tahlilda ham shunga o'xshash xulosalarga kelingan: og'riq endometriozning asosiy belgisi bo'lib, unga bepushtlik va jinsiy hayotdagi muammolar ham qo'shilib boradi, depressiya, tashvish va stress esa ayollarning hayot sifatini pasaytiruvchi asosiy omillar sifatida ko'rsatilgan. Shuningdek, bemorlarning sog'liqni saqlash tizimi bilan munosabatlari ko'pincha qoniqarsiz bo'lib, uzoq va murakkab diagnostika jarayoni, davolashning yetarlicha samarali bo'lmasligi bemorlarda qo'shimcha ruhiy taranglikni keltirib chiqarishi ta'kidlangan [5].

Klassik nazorat guruhli tadqiqotda esa chanoq og'rig'i mavjud va yo'q endometrioz bemorlari hamda sog'lom ayollar solishtirilgan bo'lib, faqat chanoq og'rig'i bilan kechuvchi endometrioz bemorlarida hayot sifati va ruhiy holat sog'lom nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yomonlashgani, og'riqsiz kechuvchi endometrioz bilan sog'lom ayollar o'rtasida esa ishonchli farq topilmagani ko'rsatilgan. Bunda siklsiz chanoq og'rig'i barcha o'rganilgan

ko’rsatkichlarga ta’sir etgan, dismenoreya esa faqat jismoniy hayot sifatiga ta’sir ko’rsatgani aniqlangan [6].

Italiyada bajarilgan tavsiflovchi tahlilda ham og’riqning psixosomatik xususiyatlari alohida ko’rib chiqilib, og’riqni faqat tibbiy-jarrohlik nuqtai nazaridan emas, balki miya-tana-aql o’zaro bog’liqligi asosida, ya’ni psixoterapevtik yondashuvlar bilan birga baholash zarurligi ta’kidlangan, bu esa multidisiplinar yordamning ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi [7].

Yuqoridagi ma'lumotlarni umumlashtirganda, endometrioz bilan og’rigan ayollarda hayot sifati va psixologik holatning yomonlashuvi asosan surunkali og’riq, kechiktirilgan tashxis, bepushtlik muammosi va tibbiyot tizimi bilan qoniqarsiz o’zaro munosabatlar bilan bog’liq bo’lib, bu omillarning har biri alohida va birgalikda bemorning umumiy farovonligiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin.

Natijalar va muhokamalar Zamonaviy ilmiy manbalarda endometriozning ayollar hayot sifatiga ta’sirini belgilovchi asosiy omillar sifatida ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, o‘zini baholash, shaxslararo munosabatlar, mehnat faoliyati, tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyati hamda reproduktiv muammolar qayd etiladi. Muharam va hammualliflar (2022) tadqiqotida endometrioz bilan bog’liq eng sezilarli emotsional muammolardan biri ona va farzand o’rtasidagi munosabatlarning buzilishi ekanligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotchilar, shuningdek, mazkur kasallik fonida ayrim psixologik va xulq-atvor bilan bog’liq muammolar kuzatilishi mumkinligini ta’kidlagan.

Endometriozda hayot sifatiga ta’sir etuvchi muhim jihatlardan yana biri davolash imkoniyatlaridir. Samarali davolash bemorning kundalik faoliyatdagi cheklanish va ojizlik hissini kamaytirishga yordam berishi mumkin. Tadqiqotlarda kasallik holati, o’zini baholash va ijtimoiy qo’llab-quvvatlash o’rtasida o’rtacha darajadagi o’zaro bog’liqlik mavjudligi aniqlangan [7]. Bien va hammualliflari (2020) ma’lumotlariga ko’ra, bemorlarning kasallikni qabul qilish darajasi o’rtacha bo’lib, respondentlarning aksariyati davolanish xarajatlarini yuqori deb baholagan. Ta’lim darajasining yuqoriligi esa farovonlik ko’rsatkichlarining yaxshiroq bo’lishi bilan bog’langan.

Shuningdek, umumiy salomatlik va yashash muhiti ayollarning hayot sifatini shakllantiruvchi muhim omillar sifatida qayd etilgan. Endometriozga chalingan ayollarda sog’lom, biroq o’xshash simptomlarga ega ayollarga nisbatan hayot sifati ko’rsatkichlari pasayishi mumkin. Bunda yosh omili ham muhim ahamiyatga ega bo’lib, tadqiqotlarda yoshi kattaroq bemorlarda hayot sifatining nisbatan yuqoriroq bo’lishi qayd etilgan.

Turli yosh guruhlarida endometriozning ta’sir doirasi ham farqlanishi mumkin. Umumiy holda oilaviy munosabatlar, ijtimoiy hayot, kasallikning o’zi va ruhiy holat barcha bemorlar uchun muhim omillar hisoblanadi. 25–34 yoshdagi ayollarda bandlik, 35 yoshdan kattalarda moliyaviy holat, 24 yoshgacha bo’lganlarda esa ta’lim hayot sifatiga ko’proq ta’sir ko’rsatuvchi omillar sifatida aniqlangan. Bundan tashqari, tana qiyofasini qabul qilish ham muhim ahamiyatga ega bo’lib, semizlik kuzatilgan ayollarda o’zidan va kundalik hayotidan qoniqish darajasi pastroq bo’lishi aniqlangan [8,9].

Xulosa Endometrioz nafaqat jismoniy, balki ayolning ruhiy salomatligiga ham jiddiy ta’sir ko’rsatadigan surunkali kasallik bo’lib, bemorlarda depressiya va tashvish alomatlari yuqori chastotada uchraydi, ruhiy kasalliklar tashxisi qo’yilish xavfi esa sog’lom ayollarga nisbatan bir necha baravar yuqori. Ushbu bemorlar bilan ishlashda tashxisni imkon qadar erta qo’yish, og’riqni samarali nazorat qilish va psixologik yordamni tibbiy davolashning ajralmas qismi sifatida joriy etishga asoslangan multidisiplinar yondashuvni qo’llash zarur.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Szypłowska M., Tarkowski R., Kułak K. The impact of endometriosis on depressive and anxiety symptoms and quality of life: a systematic review. Front Public Health. 2023;11:1230303.

2. Maulenkul T., Kuandyk A., Makhadiyeva D., Dautova A., Terzic M., Oshibayeva A., Moldaliyev I., Ayazbekov A., Maimakov T., Saruarov Y., Foster F., Sarria-Santamera A. Understanding the impact of endometriosis on women's life: an integrative review of systematic reviews. BMC Womens Health. 2024;24:524.

3. Li W., Feng H., Ye Q. Relationship between endometriosis and mental health: a systematic review and meta-analysis. Arch Med Sci. 2025;21(5).

4. Wang T.M., Lee Y.L., Chung C.H., Sun C.A., Kang C.Y., Wu G.J., Chien W.C. Association between endometriosis and mental disorders including psychiatric disorders, suicide, and all-cause mortality — a nationwide population-based cohort study in Taiwan. Int J Womens Health. 2023;15:1865–1882.

5. Facchin F., Barbara G., Saita E., Mosconi P., Roberto A., Fedele L., Vercellini P. Impact of endometriosis on quality of life and mental health: pelvic pain makes the difference. J Psychosom Obstet Gynaecol. 2015;36(4):135–141.

6. Farenga E., Bulfon M., Dalla Zonca C., Tersar C., Ricci G., Di Lorenzo G., Clarici A. A psychological point of view on endometriosis and quality of life: a narrative review. J Pers Med. 2024;14(5):466.

7. Muraham, R.; Amalia, T.; Pratama, G.; Harzif, A.K.; Agiananda, F.; Faidarti, M.; Azyati, M.; Sumapraja, K.; Winarto, H.; Wiweko, B.; et al. Chronic Pelvic Pain in Women with Endometriosis is Associated with Psychiatric Disorder and Quality of Life Deterioration. Int. J. Womens Health. 2022, 4, 131–138. [Google Scholar] [CrossRef] [Scilit] [PubMed]

8. Bień, A.; Rzońca, E.; Zarajczyk, M.; Wilkosz, K.; Wdowiak, A.; Iwanowicz-Palus, G. Quality of life in women with endometriosis: A cross-sectional survey. Qual. Life Res. 2020, 29, 2669–2677. [Google Scholar] [CrossRef] [Scilit] [PubMed]

9. Warzecha, D.; Szymusik, I.; Wielgos, M.; Pietrzak, B. The impact of Endometriosis on the Quality of Life and the Incidence of Depression—A Cohort Study. Int. J. Environ. Res. Public Health 2020, 17, 3641. [Google Scholar] [CrossRef] [Scilit] [PubMed]